

ARABLARNING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISH TARIXINING
MANBALARDA AKS ETISHI
Satimova Lobar Rustambek qizi

Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakultetining "Tarixshunoslik va manbashunoslik" yo'naliishi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14657207>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arablarning O'rta Osiyoga kirib kelishi va mintaqada islom dinining tarqalishi bilan bog'lik masalalar, arablarning mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni, hayoti, turmush tarzini tarixiy manbalarda aks etishini ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Arablar, O'rta Osiyo xalqlari, "Futux al-buldon", "Tarix ar-rusul val-muluk", "Tarixi Buxoro", "Osor ul-boqiya", "Tarix al-Yaminiy", "Kitob surat al-arz", "Kitob al-kamol lima'rifat ar-rijol".

REFLECTION OF THE HISTORY OF THE ARAB INVASION IN CENTRAL ASIA IN SOURCES

Abstract. In this article, we will consider issues of connection with the entry of Arabs into Central Asia and the spread of Islam in the region, the role of Arabs in socio-political processes in the region, their life, lifestyle in historical sources.

Keywords: Arabs, peoples of Central Asia, "Futux al-buldon", "Historia ar-rusul val-muluk", "Historia Bukhara", "Osor ul-boqiya", "Historia al-Yaminiy", "Kitab surat al-arz", "Kitab al-kamol Lima'rifat ar-rijol".

ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ АРАБСКОГО ВТОРЖЕНИЯ В СРЕДНЮЮ АЗИЮ В ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим вопросы, связанные с проникновением арабов в Центральную Азию и распространением ислама в регионе, а также роль арабов в общественно-политических процессах в регионе, их жизнь и образ жизни, как это отражено в исторических источниках.

Ключевые слова: арабы, народы Средней Азии, «Футух аль-булдан», «Тарих ар-руслул валь-мулюк», «Тарих Бухара», «Осор ул-бакийя», «Тарих аль-Ямини», «Книга «Сурат аль-Бухари» -Арз», «Китаб аль-Камаль лима'рифат ар-Риджал».

Kirish

Ilk o'rta asrlarga kelib turli-xil xalqlarning O'rta Osiyoga yurishi davrida o'lkamiz xalqlari, murakkab ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyat va o'zaro nizolarga qaramay, o'zining asrlar davomida yashab kelayotgan tarixiy-madaniy belgilari va milliy etnik xususiyatlarini saqlab qoldi.

Mintaqaga chetdan kirib kelgan boshqa xalqlar esa bu yerdagи an'analarni o'zlashtirib, mahalliy xalqqa singib borganlar hamda ma'lum darajada o'zliklarini ham saqlab qolishga harakat qilganlar. Bunga O'zbekiston xududiga VII asr o'rtalarida kirib kelgan arablar tarixi misol bo'la oladi.

Arablarining O'rta Osiyoga, shuningdek, mamlakatimiz zaminiga kelib joylashuvi hamda mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni, hayoti, turmush tarzi ko'plab tarixiy manbalar va tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Asosiy qism

Arablarining O'rta Osiyoga yurishi va mintaqada islom dinining tarqalishi bilan bog'lik masalalar birinchilardan bo'lib, Balazuriyning "Futux al-buldon" ("Mamlakatlar fathi") asarida o'rin olgan. Asli eronlik bo'lgan Balazuriy xalifalik poytaxti Bag'dodga kelib, xalifa Ma'mun saroyida katta e'tibor ko'rgan va arab istilosiga doir birlamchi ma'lumotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan. Muarrix o'z asarida xalifalik markazi va uning atrofidagi Kufa, Basra kabi shaharlarning ahvoli hamda arablar siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish barobarida, arablar qo'l ostidagi o'lka va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir keng ma'lumotlarni keltirgan. Shuningdek, "Futuh al-buldon" asarida arablarining kirib kelish harakatlari, xususan, ular tomonidan Xuroson va Movarounnahrning egallanishiga doir qimmatli ma'lumotlar o'rinni olgan.

Arab fathi keng yoritilgan yana bir manba Tabariyning "Tarix ar-rusul val-muluk" ("Payg'ambarlar va hukmdorlar tarixi") asaridir. Asar arablarining Movarounnahrga yurishlari, o'lkamizdagi ozodlik harakatlari haqida batafsil hikoya qiluvchi atoqli manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Arab tilida yozilgan mazkur asarda VIII-IX asrlarga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud, biroq muallifning ba'zi voqealar tafsiloti bayonida masalaga bir yoqlama yondashuvi yaqqol namoyon bo'ladi.

Movarounnahrga arablarining kirib kelishini nisbatan batafsil bayon qilgan tarixchilardan yana biri Narshaxiy esa, arablarining mintaqaga, xususan Buxoroga yurishi va islom dini tarqalishini o'zining "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi") asarida yoritgan. Ushbu asar voqealar sodir bo'lgan davrga yaqin yillarda, hali arab bosqinchilarining qilmishlari xalq yodidan o'chmagan

xotiralarga asoslanib yozilgani bilan ham qimmatlidir. Aynan shu asar arablar istilosи va o'lkamizda islom dini tarqalishini tadqiq etishda bebaho manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

O'zining bir qator asarlarida arablar haqida to'xtalib o'tgan Beruniy esa old osiyolik qadimiy xalqlarning, shu jumladan, arablarning turmush tarzi va urf-odatlariga doir qimmatli ma'lumotlarni asosan "Osor ul-boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarida qayd etgan. Shu bilan birgalikda, u Mavarounnaxrdagi arablar faoliyatining ayrim qirralari va arablarga qarshi qaratilgan xalq harakatlariga oid muhim dalillar keltirgan. Beruniy asarlarida o'rin olgan tarixiy tafsilotlar undan oldin yozib qoldirilgan manbalarga va xalq orasida saqlanib qolgan xotiralarga asoslangan bo'lib, allomaning arab istilosiga nisbatan bildirgan fikrlari o'zining haqqoniyligi bilan ajralib turadi.

Arablarning O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlardagi, umuman olganda, Sharqdagi faoliyatiga doir ma'lumotlar Utbiyning "Tarix al-Yaminiy" asarida anchagina batafsil keltirilgan.

G'aznaviylar davlati saroyida xizmat qilib, sulton Mahmud G'aznaviy (998- 1030) e'tiborini qozongan mazkur muarrixning arab tilida yozgan ushbu asarida, arablarning mintaqadagi mavqeiga doir qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Xususan, Utbiyning yozishicha, vazir Maymandiy G'aznaviylar Davlatidagi yozishmalar va ish yuritishni arab tilida olib borishni qayta joriy qilishga uringan bo'lib, fors tilining tobora oshib borayotgan mavqeini pasaytirishga harakat qilgan.

Arab fathi, umuman, musulmon sulolalari faoliyati tarixini ancha izchil yoritgan tarixiy asarlar orasida Ibn al-Asirning "al-Komil fit- tarix" ("Mukammal tarix") asari alohida e'tiborga molik. Ko'p o'rinnarda Tabariyning asarida qayd etilgan ma'lumotlarga asoslanilgan ushbu asarda arab istilosiga, xususan, xalifalik qo'shinlari tomonidan O'rta Osiyoning egallanishiga doir muhim ma'lumotlar uchrashi bilan birga, islom olamida o'rta osiyolik xalqlar, shu jumladan, Saljuqiyalar davrida turkiylarning siyosiy va harbiy jihatdan tutgan mavqeい masalasiga ham ancha keng to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, Ibn al-Asir o'zidan oldin o'tgan aksariyat tarixchilardan farqli holda tarixiy jarayonlarni faqatgina bayon qilib qolmasdan, voqeа va hodisalarga tanqidiy yondashgan olim sifatida e'tirof etiladi.

Arab fathi nafaqat tarixiy asarlarda, balki IX-XI asrlarda O'rta Osiyoga sayohat qilgan arab va fors geograflari asarlarida ham ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Ular orasida Ahmad ibn Ishoq ibn Ja'far al-Ya'qubiyning "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlar haqida kitob"), Ibn Havqalning "Kitob surat al-arz" ("Yerning tuzilishi haqidagi kitob"), Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Shamsiddin al-Muqaddasiyning "Ahsan at- takosim Fi ma'rifat ul-aqolim" ("Iqlimlarning

ma’rifatida qismlarning husni”), Abu Sa’id Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiyning “Kitob al-kamol lima’rifat ar-rijol” (“Nomdor kishilarni tanituvchi mufassal kitob”) kabi asarlarini kayd etish mumkin.

Bu asarlarda arablarning O’rta Osiyoga kirib kelish jarayonlariga oid ma’lumotlar bilan birga, ba’zi o’rinlarda mintaqqa xalqlarining turmush tarzi va urf-odatlarini arablarniki bilan taqqoslash holatlari ham uchraydi. Jumladan, Ya’qubiyning “Kitob al-buldon” asarida arablarning Movarounnahr chegara hududlarida ko‘chmanchilar hujumidan saqlanish uchun olib borgan harakatlariga doir bir qator ma’lumotlar keltiriladi.

XII-XIV asrlarga mansub qator manbalarda ham O’rta Osiyoda o’rnashib qolgan arablar haqida tafsilotlar uchraydi. Xususan, Abu Sa’id Abdulkarim ibn Muhammad as-Sa’moniyining “Kitob al-ansob” (“Nasablar kitobi”), Ibn Battutaning “Sayohatnama” 5 asarlarida movarounnahrlik arablar, ya’ni mintaqadan yetishib chiqqan allomalar orasida asli arab bo’lgan tasavvuf va ijod axliga doir ma’lumotlar joy olgan.

Yuqorida aytilganidek, O’rta Osiyoda arablarning joylashuviga doir ma’lumotlar arab mualliflaridan tashqari, mahalliy tarixchilar asarlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy as-Samarqandiyning “Kitob al-qand fi tarixi Samarqand” (“Samarqand tarixiga oid qand kitob”), Abulfazl Muhammad ibn Abdujalil ibn Haydar as-Samarqandiyning “Qandiyayi xurd” (“Kichik qandiya”), Abu Tohirxoja Samarqandiyning “Samariya”, Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarlarida ham arab istilosи va arablar bilan bog‘liq bir qator masalalarga to‘xtalib o’tilgan. Shuningdek, ushbu asarlarda Movarounnahrdan yetishib chiqqan ijod ahlining bir qismini tashkil etgan arablarga doir ma’lumotlarni ham uchratish mumkin.

Arablar tomonidan Movarounnahr hududlarini istilo etilishi talay xorijiy tadqiqotlarda bat afsil bayon qilingan. Xususan, Jurji Zaydon, Rosskin Gib, Vasiliy Bartold, Rene Grosse, Sinor Denis, Pavel Bulgakov, Sochek Svat, Ira Lapidus, Kennidi Hyu va Star Frideriklar ishlarida arablarning O’rta Osiyoga kirib kelishi, boshqaruv tizimi, mustaqil davlatlarning tuzilishi singari masalalarga alohida mavzular ajratilgan. Masalan, Kennidi Hyuning “The Great Arab Conquests: How the Spread of Islam Changed the World We Live In” nomli kitobida Markaziy Osiyoni arablar tomonidan istilo etilishiga yettinchi va sakkizinch boblar ajratilgan. Yettinchi bob “Amudaryoni kesib o’tish” deb nomlangan bo‘lib, Movarounnahni egallash to‘rt bosqichda amalga oshirilgani qayd qilingan. Birinchi bosqich 650-705-yillarda arablar asosan hujum qilib, qish mavsumidan oldin Marvga qaytib ketishgan. Ikkinci bosqich 705-715-yillarda Qutayba ibn

Muslim Toxariston, Sog'd, Xorazm hududlarini egallab, Buxoro va Samarqand shaharlarida arab harbiy garrisonlarini joylashtirgan. 716-737-yillar, ya'ni uchinchi bosqichda turklar va ularning ittifoqchilari bo'yundirilgan.

737-751 yillarda Asad ibn Abdulloh va Nasr ibn Sayyorlar arab xalifaligi hududlarini kengaytirish ishlarini davom ettirgan va arablar hokimiyatini tan olgan mahalliy hukmdorlarni o'z lavozimida qoldirgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mazkur muammo ko'pdan beri tадqiqotchilarning diqqatini jalb qilib, ular tomonidan ko'plab tadqiqotlar chop ettirilgan bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda yashovchi arablar tarixi haligacha maxsus tadqiqot obyekti bo'lмаган. Shuningdek, arablarning respublikamizda o'troqlashuv hayoti keng qamrovli tadqiq etilgani yo'q.

Mavzuga oid manba va adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, O'rta Osiyoda arab istilosiga doir bir nechta kitob va ilmiy to'plamlar chop etilgan bo'lishiga qaramay, O'zbekistonga arablarning kirib kelish bosqichlari va joylashish tarixi, ularning keyingi hayoti va taqdiri tarixiy ko'lamda maxsus tadqiqot obyekti bo'lмаган.

REFERENCES

1. Abdurahmonov F. Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T.: O'qituvchi, 1982. – 166 bet.
2. Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad as-Saolibiy. Kitob latoif al-maorif. - T. Fan, 1987. – 130 bet.
3. Abu Tohirxoja. Samariya // Abu Tohirxoja va boshk. / "Meros" turkumi. Mas'ul muharrir, so'zboshi muallifi X. Davron. T. Kamalak, 1991. - 5-81-betlar. Sredney
4. Arminiy Vamberi. Puteshestviye po Azii.- M.: Vost. lit., 2003. - 192 s.
5. Rajabov R. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi.-T.: <> nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2012.-13 b.
6. Gibb H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. –London: Royal Asiatic Society, 1923. – 126 p.
7. Barthold V. Turkestan Down to the Mongol Invasions, trans. H. Gibb. –London: Memorial Series, 1968. –pp.180-93
8. Grousset R. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. RutGers University Press, 1970.–114 p

9. Denis S. The Cambridge History of Early Inner Asia, Volume 1. Cambridge University Press, 1990.—504 p